

Xorazm viloyatida sog'liqni saqlash

2024- yil yakuni bo'yicha


- I. Xorazm viloyatidagi shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari
- II. Xorazm viloyatidagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari
- III. Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar hamda o'rta tibbiyot xodimlari
- IV. Aholining kasallanish darajasi hamda shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar
- V. Sog'liqni saqlash bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatidagi shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari

Shifoxona muassasasi – kechayukunduz tibbiy yordam ko'rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va reabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.

Xorazm viloyatidagi shifoxona muassasalari soni


(tegishli yil yakuni bo'yicha, birlik)



2024- yil yakuni bo'yicha Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining umumiy soni **83 taga** yetdi va 2023- yilga nisbatan **8 taga** ko'payib, **10,6 %** ga o'sishni tashkil etdi. Umumiy shifoxona muassasalari sonidan kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan muassasalar soni **58 tani** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **16 taga**, ya'ni **38,1 %** ga oshdi.

Shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni

(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming birlik)



2024-yil yakunida Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni **8,6 mingtaga** yetdi va 2023-yilga nisbatan **0,6 mingtaga** ko'payib, **6,9 %** gao'sishni tashkil etdi.

**Shifoxonamuassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari
sonining hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2024-yil yakuni bo'yicha, birlik)

	Shifoxona muassasalari soni		shundan, kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan muassasalar soni		Bemoro'rinlari soni (ming birlik)	
	jami ¹⁾	jamiga nisbatan % dagi ulushi	jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi	jami ¹⁾	jamiga nisbatan % dagi ulushi
Xorazm viloyati.	83	100	58	100	152,3	100
Shu jumladan:						
Shahar:						
Urganch sh.	35	42,2	23	39,6	75,1	49,3
Xiva sh.	3	3,6	3	5,1	2,7	1,8
tumanlar:						
Bog'ot	3	3,6	2	3,4	4,6	3,0
Gurlan	10	12,0	9	15,5	32,2	21,1
Qo'shko'pir	5	6,0	4	6,9	10,9	7,2
Urganch	10	12,0	8	13,8	10,3	6,7
Hazorasp	4	4,8	3	5,1	0,8	0,5
Tuproqqal'a	1	1,2	-	-	-	-
Xonqa	3	3,6	1	1,7	0,15	0,1
Xiva	3	3,6	2	3,4	2,3	1,5
Shovot	1	1,2	-	-	-	-
Yangiariq	1	1,2	-	-	-	-
Yangibozor	4	4,8	3	5,1	13,1	8,6

2024-yil yakuni bo'yicha eng ko'p shifoxona muassasalari Urganch shahrida (**35 ta**), Gurlan tumanida (**10 ta**) hamda Urganch tumanida (**10 ta**) joylashgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan engpast ko'rsatkichlar Tuproqqal'a tumanida (**1 ta**), Shovot tumanida (**1 ta**) va Yangiariq tumanida (**1 ta**) qayd etilgan. Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining eng ko'pi Urganch shahriga (**23 ta**), Gurlan tumani (**9 ta**) va Urganch tumaniga (**8 ta**) to'g'ri kelgan, eng kami esa Xonqa (**1 ta**), Xiva va Bog'ot tumanlarida (**2 ta**) qaydetilgan.

¹⁾Tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.

Shifoxona muassasalaridagi eng ko'p bemor o'rinlari Urganch shahri (**75,1 mingta**), Gurlan (**32,2 mingta**) va Yangibozor (**13,1 mingta**) tumanlarida qayd etilgan bo'lib, boshqahududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Xonqa (**0,15 mingta**), Hazorasp (**0,8 mingta**) va Xiva (**2,3 mingta**) tumanlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Shifoxona muassasalari soni](#)

[Shifoxona muassasalari sonining tumanlar kesimida taqsimlanishi](#)

[Shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni](#)


[10 000 aholiga to'g'ri keladigan bemor o'rinlari soni](#)

II. Xorazm viloyatidagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari– aholining ushbu muassasalarga qatnashi yoki shifokorlarni uylarga tashrif buyurishi orqali aholiga davolash profilaktika yordamini ko'rsatuvchi muassasalardir (poliklinikalar, dispanserlar, shifoxonalarning poliklinika bo'limlari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, tibbiy sanitariya qismlar, ambulatoriyalar, qishloq (shahar) vrachlik punktlari, mustaqil vrachlik tibbiyot punktlari, ayollar maslahat xonalari va boshqalar).

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni

(tegishli yil yakuni bo'yicha, birlik)



■ *Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni (jami)*

■ *Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni*

2024- yil yakunida Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni **502 taga** yetdi va 2023- yilga nisbatan **31 taga**, ya'ni **5,8 %** gakamaydi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni **414 tani** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **24 taga ko'payib, 6.1 %** ga o'sishni tashkil etdi.

Ambulatoriya-poliklinika muassasalarisonining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil yakuni bo'yicha, birlik)

	Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni		shundan, kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan muassasalar soni	
	jami ¹⁾	jamiga nisbatan % dagi ulushi	jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi
Xorazm viloyati.	502	100	414	100
Shu jumladan:				
Shahar:				
Urganch sh.	145	28,9	150	106,3
Xiva sh.	35	6,9	32	7,7
tumanlar:				
Bog'ot	28	5,6	17	4,1
Gurlan	33	6,6	31	7,5
Qo'shko'pir	29	5,8	18	4,3
Urganch	38	7,6	31	7,5
Hazorasp	37	7,4	28	6,8
Tuproqqal'a	11	2,2	6	1,4
Xonqa	44	8,7	33	8
Xiva	23	4,6	14	3,4
Shovot	36	7,2	26	6,3
Yangiariq	24	4,8	15	3,6
Yangibozor	19	3,8	13	4,7

2024- yil yakuni bo'yicha hududlar kesimida eng ko'p ambulatoriya-poliklinika muassasalari Urganch shahrida (**145 ta**), Urganch (**38 ta**) va Hazorasp (**37ta**) tumanlarida qayd etilganbo'lib, eng past ko'rsatkichlar Tuproqqal'a (**11ta**), Yangibozor (**19ta**) va Xiva (**23 ta**) tumanlarida kuzatilgan. Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalarining eng katta qismi ham Urganch shahrida (**150 ta**), Xiva shahrida (**32 ta**) va Xonqa (**33ta**) tumanlarida qayd etilgan bo'lib, eng past ko'rsatkichlar Tuproqqal'a (**6 ta**), Yangibozor (**13 ta**) va Xiva (**14 ta**) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni](#)

[Ambulatoriya-poliklinika muassasalari sonining tumanlar kesimida taqsimlanishi](#)


¹⁾Tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.

III. Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar hamda o'rta tibbiyot xodimlari

Shifokorlarning umumiy soniga yil oxirida tibbiyot, sanitariya tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot muassasalari, tibbiyot ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash muassasalarida va boshqalarda ishlaydigan oliy tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan barcha shifokorlar kiradi.


O'rta tibbiyot xodimlarining umumiy soniga tibbiyot va sanitariya tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot muassasalari, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, bolalaruylari va boshqalarda ishlaydigan o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan barcha shaxslar (tishshifokorlaridan tashqari) kiradi.

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan
barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar soni
(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



2024- yil yakuniga ko'ra, Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar soni **6,2 ming kishini** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **0,5 ming kishiga**, ya'ni **8,7 % ga** ko'paydi. 2024- yil yakuniga qadar faoliyat yuritayotgan shifokorlar umumiy sonidan ayollarning ulushi **2,9 % ni**, erkaklarning ulushiesa **3,2 % ni** tashkil etdi. 2023- yil ma'lumotlariga nisbatan ayol-shifokorlar soni **7,4 % ga**, erkak-shifokorlar soni esa **6,6 % ga** oshdi.

Xorazm viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni
(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



2024- yil yakunida Xorazm viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni **16,6 ming kishini** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **0,7 ming kishiga**, ya'ni **4,2 % ga** kamaydi.

**Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar hamda o'rta tibbiyot
xodimlari sonining tumanlar kesimida taqsimlanishi¹⁾**
(2024- yil yakuni bo'yicha, ming kishi)

	Shifokorlar soni, jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi	ulardan:		O'rtatibbiyot xodimlari soni	jamiga nisbatan % dagi ulushi
			erkaklar	ayollar		
Xorazm viloyati.	6,2	100	3,2	2,9	16,6	100
Shu jumladan:						
Shahar:						
Urganch sh.	2,8	45,2	1,6	1,3	5,0	30,1
Xiva sh.	1,8	29,0	0,09	0,09	0,4	2,4
tumanlar:						
Bog'ot	0,3	4,8	0,2	0,1	1,1	6,6
Gurlan	0,3	4,8	0,2	0,1	0,9	5,4
Qo'shko'pir	0,6	9,7	0,1	0,1	1,2	7,2
Urganch	0,4	6,4	0,2	0,2	1,5	9,0
Hazorasp	0,3	4,8	0,2	0,1	1,1	6,6
Tuproqqal'a	0,09	1,4	0,05	0,04	0,4	2,4
Xonqa	0,3	4,8	0,2	0,1	1,1	6,6
Xiva	0,3	4,8	0,1	0,1	0,8	4,8
Shovot	0,3	4,8	0,1	0,2	1,2	7,2
Yangiariq	0,2	3,2	0,09	0,1	0,8	4,8
Yangibozor	1,9	30,6	0,09	0,09	0,6	3,6

2024- yil yakuni bo'yicha Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlarning eng ko'p soni Urganch shahri (**2,8 ming kishi**), Yangibozor tumani (**1,9 ming kishi**) va Xiva shahri (**1,8 ming kishi**) ga to'g'ri kelgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Yangiariq (**0,2 ming kishi**), Tuproqqal'a (**0,09 ming kishi**) tumanlarida kuzatilgan.

Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, Urganch shahri (**1,6 %**) shifokorlarning umumiy sonidan erkaklar ulushi ayollar ulushidan yuqori bo'lgan.

2024- yil yakuniga ko'ra, eng ko'p o'rta tibbiyot xodimlari Urganch shahri (**5 ming kishi**), Urganch tumani (**1,5 ming kishi**) hamda Qo'shko'pir tumanida (**1,2 ming kishi**) qayd etilgan. Boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Xiva shahri (**0,4 ming kishi**), Tuproqqal'a (**0,4 ming kishi**) va Yangibozor (**0,6 ming kishi**) tumanlarida kuzatilgan.

¹⁾Tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.

Ixtisosliklar va ayrim mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar bilan ta'minlanganlik
(tegishli yil yakuni bo'yicha, 10 000 aholiga nisbatan shifokorlar soni)

	2021	2022	2023	2024	2025
Jami shifokorlar,	5,3	5,3	5,6	5,7	6,2
<i>ulardan:</i>					
terapevtik ixtisosligi bo'yicha	1,2	0,2	1,9	2,1	2,4
jarrohlik ixtisosligi bo'yicha	0,7	0,2	0,6	0,7	0,7
akusher-ginekologlar (10 000 ayolga nisbatan)	0,3	0,3	0,3	0,3	0,4
pediatrlar (0-14 yoshdagi 10 000 bolaga nisbatan)	0,4	0,2	0,3	0,2	0,5
pediatrlar (0-17 yoshdagi 10 000 bolaga nisbatan)	0,4	0,2	0,3	0,2	0,5
oftalmologlar	0,1	0,08	0,08	0,08	0,09
otolaringologlar	0,1	0,07	0,08	0,09	0,01
ftiziatrlar	0,07	0,07	0,6	0,07	0,06
nevropatologlar	0,2	0,1	0,1	0,1	0,2
psixiatrlar	0,07	0,06	0,06	0,09	0,06
narkologlar	0,02	0,02	0,02	0,02	0,02
dermato-venerologlar	0,06	0,05	0,06	0,06	0,06
stomatologlar	0,4	0,3	0,2	0,2	0,6
sanitariya-epidemiologiya guruh shifokorlari	0,2	-	0,2	0,04	0,3
rentgenologlar va radiologlar	0,08	0,09	0,06	0,09	0,08
onkologlar	0,05	0,03	0,04	0,05	0,07


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar soni](#)
[Shifokorlar bilan ta'minlanganlik \(10 000 aholiga nisbatan shifokorlar soni\)](#)
[Bitta shifokorga to'g'ri keladigan aholi soni](#)
[Barcha mutaxassisliklar bo'yicha ayol-shifokorlar soni](#)
[Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar sonidan ayollar ulushi](#)
[Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar sonidan erkaklar ulushi](#)

IV. Aholining kasallanish darajasi hamda shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni

Kasallanish darajasi – bu ko'rsatkich ma'lum bir davr mobaynida har 100 000 aholiga to'g'ri keladigan birinchi marotaba ro'yxatga olingan kasallik holatlar sonini aks ettiradi. U yangi kasalliklarni paydo bo'lishi dinamikasini tahlil qilish, profilaktika choralarini samaradorligini baholash va tibbiy resurslarni rejalashtirish uchun ishlatiladi.


Xorazm viloyatida aholining kasallanish darajasi
(tegishli yil yakuni bo'yicha, 100 000 aholiga nisbatan birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holatlar soni)



2024-yil yakunida Xorazm viloyatida aholining kasallanish darajasi har 100 000 aholiga nisbatan **62230,0 ta** birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holatlarni tashkil etdi va 2023-yilga nisbatan **2,3 % ga** ko'paydi.


Kasalliklarning asosiy guruhlari bo'yicha aholining kasallanish darajasi

(2024-yil yakuni bo'yicha, 100 000 aholiga nisbatan birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holatlar soni)



Xorazm viloyatidashifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni

(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



2024-yil yakuni bo'yicha Xorazm viloyatida shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni **383,9 ming kishini** tashkil etdi va 2023-yilga nisbatan **46,3 ming kishiga**, ya'ni **13,7 % ga** ko'paydi.

¹⁾15-49 yoshdagi ayollarga nisbatan.

²⁾Perinatal yoshdagi bolalarga nisbatan.

Tumanlarda aholining kasallanish darajasi hamda davolangan bemorlar soni
(2024- yil yakuni bo'yicha)

	Aholining kasallanish darajasi ¹⁾ (100 000 aholiga nisbatan birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holatlar soni)	Davolangan bemorlar soni	
		jami ²⁾ (ming kishi)	jamiga nisbatan % dagi ulushi
Xorazm viloyati.	62 230	383,9	100
Shu jumladan:			
Shahar:			
Urganch sh.	310 526	136,4	35,5
Xiva sh.	58 982	2,6	0,7
tumanlar:			
Bog'ot	91 872	22,3	16,3
Gurlan	35 876	26,9	7
Qo'shko'pir	76 096	26,4	6,8
Urganch	179 341	48,2	12,5
Hazorasp	124 427	20,9	5,4
Tuproqqal'a	30 623	6,4	1,7
Xonqa	88 825	21,6	5,6
Xiva	76 575	27,8	7,2
Shovot	97 127	20,2	5,3
Yangiariq	43 640	11,6	3
Yangibozor	50 852	12,2	3,2

2024- yil yakuniga ko'ra, aholining kasallanish darajasining eng yuqori ko'rsatkichlari Urganch shahri (har 100 ming aholiga nisbatan **310 526 ta** birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holat), Urganch tumani (**179 341 ta holat**) va Hazorasp tumanida (**124 427 ta holat**) qayd etilgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Tuproqqal'a (**30 623 ta holat**), Gurlan (**35 876 ta holat**) va Yangiariq (**43 640 ta holat**) tumanlarida kuzatilgan.

Urganch shahri (**136,4 ming kishi**), Urganch tumani (**48,2 ming kishi**) va Xiva tumanida (**27,8 ming kishi**) davolangan bemorlarning eng ko'p qismi qayd etilgan. Boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Xiva shahri (**2,6 ming kishi**), Tuproqqal'a (**6,4 ming kishi**) va Yangiariq (**11,6 ming kishi**) tumanlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni \(jami\)](#)

¹⁾ Urganch shahrida joylashgan markaziy tibbiyot muassasalarining hamda viloyatning barcha tumanlaridan poytaxtga davolanish uchun kelayotgan bemorlarning ko'pligi sababli Urganch shahrida aholining kasallanish darajasi 100 000 kishidan ortgan.

²⁾ Tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.

V. Sog'liqni saqlash bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sog'liqni saqlash statistikasi – sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishining miqdoriy xususiyatlarini (sog'liqni saqlash muassasalari tarmog'i, ularning holati va ta'minlanganligi, tibbiy xodimlar), aholining umumiy salomatlik holati va uning alohida kontingentlari miqdoriy xususiyatlari, tarkibi, kasallanish chastotasi va tarqalishini o'rganuvchi statistika tarmog'i hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash statistikasining asosiy vazifasi foydalanuvchilarga sog'liqni saqlashning holati va rivojlanishini tavsiflovchi ishonchli rasmiy statistika ma'lumotlarini o'z vaqtida taqdim etishdan iborat.

Sog'liqni saqlash statistikasi sog'liqni saqlash tarmoqlari, sog'liqni saqlash tashkilotlari xodimlari, bemorlarning kasalxonaga yotqizilishi, tibbiy yordam ko'rsatilishi, sog'liqni saqlash resurslari, aholining kasallanish, nogironligini qamraboladi, hamda o'zaro bog'liq bo'lgan statistika kuzatuvlari va idoraviy ma'lumotlar tizim bilan ifodalanadi, ularning har biri o'ziga xos mavzuga va statistika kuzatuv birliklarini shakllantirish xususiyatlariga ega.

Xorazm viloyatida sog'liqni saqlash bo'yicha statistik ma'lumotlar har yili shakllantiriladi. Ushbu ma'lumotlar viloyat va tumanlar kesimida taqdim etilib, hisobot yili yakuni bo'yicha keltiriladi.

Jamlangan ma'lumotlardan sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlariga boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Sog'liqni saqlash statistikasi bo'yicha uslubiy nizom](#)
[Viloyat kasalliklar tasnifining 10-tahriri \(XKT-10\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi
boshqarmasi

Manzil: Urganch sh.,
Al-Xorazmiy ko'chasi, 93-uy
El. manzil: xorazmstat@mail.uz
Tel.: +99862(224-65-21)

